

1-X
1-51
48,52 Uzeyr
2018

2018-YIL – FAOL TADBIRKORLIK, INNOVATSION G‘OYALAR
VA TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH YILI

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:1 (67166)
2018-yil 1-yanvar

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

O‘zbekiston Respublikasi bolalar va o‘smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

BAYRAM QUVONCHI

Bu galgi Yangi yil bayramida aziz bolajonlar uchun 11 ming dona Prezident sovg‘asi tayyorlandi. Har bir sovg‘ada 12 nomdagi o‘quv qurollari, 15 xil shirinliklar bor.

Quvonarlisi, bolajonlarning shodiyona kunlarida ushbu sovg‘alar Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarga yetkazib berildi va «Prezident archasi» tadbirlarida Mehribonlik va Muruvvat uylari tarbiyalanuvchilari hamda ota-ona qaramog‘idan mahrum bolalar, yurtimiz tinchligi yo‘lida qurbon bo‘lgan huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarining farzandlariga ulashildi.



**Ilm ila kimning dili ravshan erur,
U zamon ichra salomat tan erur.**

Fariduddin ATTOR

medal bilan taqdirlanishini aytaylikmi yoki Janubiy Koreyaning Chintu shahrida o'tkazilgan Jahon festivali va yakkakurash musobaqasida Denov shahridagi 81-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Marjona Alimova hamda 78-umum-



XUSH KELIBSAN, YANGI YILIM – YAXSHI YILIM!

Umrimizga umr
qo'shib, yosh-u keksani
birdek quvontirib,
fayz-u barakasi bilan

Yangi yil kirib keldi. Qalblarimiz o'zgacha zavq-u shavqqa to'lgan ushbu farahbaxsh kunlarda barchamizning ko'nglimizdan bir savol kechadi: «Kuzatgan yilimiz hayotimizda qanday iz qoldirdi? O'tgan yilga mo'ljallangan rejalaringizni qay darajada uddaladik: nimalarga ulgurdig-u, qaysi rejamiz bu yilga qoldi?» Bugun tarixga aylangan 2017-yilimizni sarhisob qilib, ulgurganlarimizdan ko'nglimiz to'ldi, ulgurmaganlarimizni bu yilgi rejalaringizning boshiga yozib qo'ydik.



Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili, deb nomlangan 2017-yil tarix zarvaralariga oltin harflar bilan yoziladigan bo'ldi. Mamlakatimiz hayotining barcha jabhalarida mislsiz o'zgarishlar, tub islohotlarga guvoh bo'ldik.

Prezidentimizning 2017-yil 22-dekabr kuni yurtimiz tarixida birinchi marta mamlakatimiz parlamenti – Oliy Majlisiga Murojaatnoma taqdim etishi o'tgan yilning muhim voqealaridan biri bo'ldi. Murojaatnomada iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalar qatorida bolalar va yoshlar mavzusiga keng o'rin berildi. Jumladan, 2017-yilda yangi ta'lim muassasalarini qurish, mavjudlarini ta'mirlashga alohida e'tibor qaratilgani aytib o'tildi. 12 ta umumta'lim maktabi yangidan barpo etildi, 320 tasi rekonstruksiya qilindi. 152 ta maktab kapital ta'mirlandi. Shuningdek, 107 ta maktabgacha ta'lim muassasasi rekonstruksiya qilindi va qurildi. 195 tasi kapital ta'mirlandi.

Maktabgacha ta'lim vazirligining tashkil etilishi, 11 yillik ta'limning qayta tiklanishi, ta'lim tizimidagi innovatsiya va kreativ yondashuvlar asosida Muhammad Xorazmiy va Mirzo Ulug'bek nomidagi aniq fanlar chuqur o'qitiladigan maxsus maktablar tashkil etilishi eng muhim voqealardan biri bo'ldi.

Shuningdek, o'tgan yil Davlatimiz rahbari tomo-

nidan ommaviy axborot vositalari, jumladan, respublika bolalar nashrlari faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratgan e'tiborlari haqida gapirsak, ko'nglimiz ham, ko'ksimiz ham yuksalib boraveradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12-avgustdagi «Matbuot va axborot sohasida boshqaruvni yanada takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoniga muvofiq respublika bolalar nashrlari, jumladan, O'zbekiston bolalar va o'smirlarining «Tong yulduzi» gazetasi ham to'liq Xalq ta'limi vazirligi muassisligiga o'tkazildi. Bu bilan jamoamizning uzoq yillik orzulari ijobat bo'ldi.

2017-yilda qo'lga kiritilgan yutuqlarimiz ro'yxatini gazetxon o'quvchilarimiz muvaffaqiyatlari bilan davom ettiradigan bo'lsak, qalbimiz quvonchga to'ladi. Qay biridan so'z boshlaylik? Hindistonda o'tkazilgan xalqaro matematika musobaqasida Buxoro viloyati, Qorako'l tumaniidagi 1-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchilari Sevaraxon Ostono-

ta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi Asrorbek Bozоров 7 ta oltin, 1 ta bronza medalni qo'lga kiritganini suyunchilaylikmi? Bu kabi xalqaro musobaqa va bel-

lashuvlarda o'zbekistonlik o'g'il-qizlarimiz erishgan g'alabalar haqida gazeta-mizning deyarli har sonida maqolalar yoritib borishga harakat qildik.

Muhtaram Prezidentimiz 2018-yilga yurtimizda Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili, deb nom berishni taklif etdilar. Bu o'z navbatida, dilimizga yangicha fikrlash, yangicha ishlash mas'uliyatini yuklaydi. Davlatimiz rahbari Faol tadbirkorlik degan tushunchaga qisqacha to'xtalib, shunday dedi: «Faol tadbirkorlik biznes faoliyatini innovatsion, ya'ni zamonaviy yondashuvlar, ilg'or texnologiya va

boshqaruv usullari asosida tashkil etadigan iqtisodiy yo'nalishdir».

Biz yurtimiz kelajagini siz yosh avlod timsolidagi ko'ramiz. Shunday ekan, bugungi kunda Yurtboshimiz davlatimiz tomonidan sizning puxta bilim olishingiz, iqtidor-u salohiyatingizni yuzaga chiqarishingiz uchun yaratilayotgan shart-sharoitlardan unumli foydalanib, bor imkoniyatingiz, fursatingizni ilm cho'qqilarini egallashga sarflang. Zero, mukammal bilimgina sizni komillik sari yetaklaydi. Prezident ta'biri bilan aytganda, bugun gap xalqimiz, Vatanimizning taqdiri va kelajagi, jondan aziz bolalarimizning baxti va kamoli haqida bora-yotgan ekan, demak, siz aziz o'g'il-qizlarimizning birinchi galdagi vazifangiz o'qish-o'rganishdir. Bu yo'lda barchangizga kuch-quvvat tilaymiz. Yangi – 2018-yilimiz xalqimiz uchun xayrli, unumli, barakali yil bo'lib kelsin!



Feruza SOYIBJON qizi

BUYUKLAR PESHVOSI

O'rta asrlarda

ko'hna mashriqzaminidan yetishib chiqqan, dunyo ilm-fani rivojiga beqiyos hissa qo'shgan allomalardan biri Ahmad Farg'oniydir. Bo'lajak qomusiy bilim sohibi Abulabbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al Farg'oni taxminan 788-yili tug'ilgan.



Qadimiy sarchashmalar hamda o'rta asr manbalarida olimning o'z hayot yo'li, faoliyati haqida aniq ma'lumot yo'q. XII-XV asrlardagi qaydlar hamda olimning o'z asarlaridagi ishoralarga qaraganda Farg'oni yoshligidan diniy va dunyoviy bilimlarni, xususan, matematika, astronomiya, geografiya, qadimgi yunon olimlari merosini mukammal o'rgangan. Shuning uchun yigitlik pallasidayoq xalifa ma'mun hukmronligi (813-833) davrida Bag'dod hamda Damashq rasadxonalari

qurishda ishtirok etadi. 812-yili Bag'dod observatoriyasida quyosh tutilishini kuzatgan. Keyinchalik olim «Miqyosi Nil» yoki «Yangi miqyos» deb nomlangan Nil daryosi suvini o'lchaydigan asboblarni takomillashtirishda bevosita ishtirok etadi.

Mashhur sharqshunoslarning tadqiqotlariga qaraganda, Ahmad Farg'oni 861-yili vafot etgan va qabri Qohiradadir. O'tmishida ilm tarixiga oid yozilgan barcha kitoblari Ahmad Farg'oni matematika, astronomiya,

geografiyaga doir ko'plab asarlar yozgan, rasadxona, gidroinshootlar qurish, astronomik asboblarni yasashda o'ta faol olim sifatida ta'riflanadi, yuksak baholanadi. Olimning «Falokiyot ilmining asoslari va samoviy harakatlarning usullari», «Handasa va hisob yordamida shimoliy va janubiy asturlubni yasash uchun komil kitob», «Yetti iqlim hisobi», «Asturlubni qo'llash haqida kitob», «Quyosh soatini yasash haqida kitob», «Al-Xorazmiy zījini tushuntirish», «Falokiyot ilmiga kirish», «Shaharlar va davlatlarning nomlari» singari o'nlab asarlarining qo'lyozmalari bizgacha yetib kelgan. Ularning nodir nusxalari Oksford, Moskva, Qohira, Istanbul, Tehron, London, Parij, Berlin kabi shaharlar kutubxonalari saqlanmoqda. Ko'hna manbalarda Ahmad Farg'oni qadimgi grek olimlari asarlarini arab tiliga tarjima qilib, ulardagi aksariyat ilmiy nazariy mulo hazalarga o'z munosabatini bildirgani qayd etib o'tilgan.

Dunyo ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan, Sharqda «Hosib», g'arbda esa «Al-Fraganus» tahalluslari bilan shuhrat topgan Ahmad Farg'oni davomida barcha zamonlarda ardoqlangan, jumladan, uning «Astronomiya asoslari» kitobi G'arbiy Yevropa universitetlarida bir necha asrlar davomida barqaror darslik sifatida qo'llanib kelingan.

Hamidjon HOMIDIY, adabiyotshunos olim

Yurtim, senga she'r bitdim bu kun,
Qiyosingni topmadim aslo.

Abdulla ORIPOV

DIQQAT, TANLOV!

BOYLIKNI BOLALIKDAN ASRANG!



Aziz o'quvchilar! Yurtimiz tabiiy boyliklarga boy ekanini yaxshi bilasiz. Ammo ota-bobolarimiz aytganlaridek, har qanday ne'matning qadriga vaqtida yetmoq lozim. Shu maqsadda xabaringiz bor gazetamiz orqali yurtimizning tabiiy boyliklari – suv, elektr energiyasi, tabiiy gazni asrashga doir «Boylikni bolalikdan asrang» tanlovini o'tkazib kelyapmiz. Darhaqiqat, tabiatning bu in'omlari bizning bebaho boyligimiz. Bu ne'matlardan oqilona foydalanish zarurligini Prezidentimiz ham ko'p bora ta'kidlaganlar.

Yangi 2018-yildan bu tanlovni yana davom ettirishni maqsad qildik. Mavzuga doir she'r, hikoya, ibratli voqea, ertak hamda maqolalaringizni tahririyatimizga yuboring va tanlovda g'olib bo'ling. G'oliblar 1-oktabr – «O'qituvchi va murabbiylar kuni»da e'lon qilinadi.

chiqadimi?

– Albatta, – dedi Adham yerga qarab.

– Barakalla, shu kichik kitobchaga mehnating singdi. Shu bois, u sen uchun qadrlil va aziz. Birovning mehnatini tan olmaslik yaxshi odat emas. O'ylaymanki, sen, albatta, o'z xatoingni tushunding. Men esa bundan xursandman, – dedi ustoz.

Buni ko'rib turgan Mohiraning chehrasi yorishdi.

Vazira MARDIYEVA,
Xalq ta'limi vazirligi
tasarrufidagi
filologiya fanlariga
ixtisoslashtirilgan davlat
umumta'lim maktabining
9-«E» sinf o'quvchisi

QALBIM MULKI SHE'RIYAT

Men yashayman quvonib,
Senga talpinib faqat.
Chunki sen o'zgachasan,
Qalbim mulki she'riyat.

Sen bilan shodman doim,
Chin o'rtog'imsan abad.
Dilimdagi so'zimsan,
Qalbim mulki she'riyat.

Men sen bilan doimo,
Birga bo'lgun abad.
Mendan ketma sen also,
Qalbim mulki she'riyat.

To'xtajon QURAZOVA,
Xorazm viloyati, Xonqa
tumanidagi 40-umumta'lim
maktabining 7-sinf
o'quvchisi

KITOB YASAGAN BOLA

Mohira sinfdoshi Adhamning kitob
sahifalariga nimanidir chizib o'tirganiga
ko'zi tushdi. U kitobga bo'lgan bunday
hurmatizlikdan ranjidi va shunday dedi:

H. HAMIDULLAYEV olgan surat



– Adham, bu nima qilganing?! Axir kitobni yaroqsiz holga keltiryapsan-ku, shu ishing so'g'rimi?

U bu so'zlarga e'tibor bermay, o'z ishini davom ettirdi. Mohiraning bundan ko'ngli ranjidi va ustoziga bo'lgan voqeani aytib, sinfdoshining kitobga bo'lgan munosabatini o'zgartirishda maslahat so'radi.

Adhamning turli xil buyumlar yasashga qobiliyati bor edi. Buni bilgan o'qituvchi o'quvchilarga kitobcha yasab kelishni vazifa qilib berdi. Adham bu ishga shunday sho'ng'ib ketdiki, atrofiga umuman e'tibor bermasdi. Nihoiyat, u yasagan kitobcha tayyor bo'ldi. Darsdan so'ng ustoz Adhamni yoniga chaqirib:

– Kitobchang ixcham va chiroyli. Buni yasashda sendan mehnat va qobiliyat sarf etilgani ko'rinib turibdi. Lekin uni birov yirtib tashlasa yoki hamma yog'ini betartib bo'yab tashlasa, jahling

Har qanday istakka qat'iy g'ayrat va oliyhimmat bilan erishiladi.

YANGI YILDA MARRALAR SARI

Bolajonlar, mana, 2017-yil ham yakuniga yetdi.

O'tgan yil taassurotlarga boy bo'lgani bilan aksariyat yoshlarning yodida qoldi. Ko'plab yutuqlar, muvaffaqiyatlar o'tgan yilda sizga hamroh bo'lib, yangi yildagi rejalaringizga qanot bo'lgan bo'lsa, ajabmas. Har jabhada ilg'or, intiluvchan va izlanuvchan o'quvchilar hayotida o'tgan yil qanday taassurotlar qoldirdi? Keling, bu haqda tengdoshlaringizga yuzlanamiz:

Nasiba BAFOYEVA, Buxoro shahridagi 2-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi:

Men shahrimizdagi «Barkamol avlod» bolalar markazining «Tasviriy san'at» to'garagiga qatnayman. Kelajakda liboslar dizayneri bo'lish orzusidanman. Ayniqsa, milliy liboslarimizning eskizlarini chizishni yoqtiraman. To'garak rahbarimiz Malika opa Xo'jayevadan tasviriy san'atning sir-asrorlarini o'rganmoqdaman. Bundan tashqari, kitoblar mutolaa qilishni yoqtiraman.



9-sinf o'quvchisi:

2017-yilda ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritdim. Ingliz tili fanidan o'tkazilgan qator tanlovlarda g'olib bo'ldim. «Dunyo» nomli til o'rganish to'garagiga qatnab, talaygina do'stlar orttirdim. Mashg'ulotlarda bir-birimiz bilan ingliz tilida muloqot qilamiz. Bu esa xorijiy tilni mukammal o'rganishimizda qo'l kelmoqda. Bo'sh vaqtlarimda sportning stol tenisi bilan shug'ullanaman. Shuningdek, o'tayotgan yil tumanda «Bilimlar bellashuvi»ning ona tili va adabiyot fanidan qatnashib, faxri o'rinni egalladim. 2018-yildan umidlarim katta. Yangi yilda yangi-yangi marralarni ko'zlagan tengdoshlarimga ham muvaffaqiyatlar eshigining keng ochilishini tilayman.



Darya AXTAMOVA, Samarqand shahar, 1-bolalar musiqa va san'at maktabining «Fortepiano» yo'nalishi bo'yicha 5-sinf o'quvchisi:

Musiqa jon-u dilim. O'tgan yil Rossiya Federatsiyasining Moskva shahrida bo'lib o'tgan V. Kraynev nomidagi II Xalqaro pianinotchilar tanlovida qatnashib, faxrli o'rinni qo'lga kiritdim. Buning uchun o'qituvchimiz Agavni Petrovnaga minnatdorlik bildiraman. Yangi yilda bundan ham yuqori natijalarga erishib, musiqa maktabimizdagi do'ru'g'ini butun dunyoga yoymoqchiman.



Aziz o'quvchilar! Siz-chi, yangi yilda qanday yutuq va muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritmoqchisiz? Bu haqda bizga, albatta, yozib yuboring. Yangi «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalari va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash» yili sizlarga muvaffaqiyat va ezguliklar yili bo'lsin.

Ozoda TURSUNBOYEVA



QIZIL QALPOQCHA VA BURATINONING DANGASAGA O'GITI

Ta'til davomida bayram tomoshalarida bo'lib, sevimli ertak qahramonlari bilan ko'rishish mazza-da! Ular maktabingizda mehmon bo'lishsa bormi, xuddi poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 300-IDUM o'quvchilari kabi ertaklar olamiga tushib qolganiday bo'lasiz. Ana shunda g'aroyib voqealar-u sehrli hodisalarning guvohiga aylanasiz.

Ushbu maktabga Oppog'oy, Qizil qalpoqcha va Malika Budur kabi ertak qahramonlari kelganining sababi bor. Boisi, ustoz Shohida Zokirova 2-«G» sinf o'quvchilariga ta'tilda jahon xalq ertaklaridan o'qib kelishni tayinlabdi. Bunda ularga mehmonlardan biri Ertak parisi ko'maklashadigan bo'ldi. Ammo dangasalik unga qarshilik ko'rsatishni rejalaganida, Aql o'z so'zini aytibdi:



Shunday qilib, Dangasa va Aql bahslashib qolibdi. Barcha ertak qahramonlari Dangasaga bolalardan uzoqroq yurishni tayinlabdi. Qizil qalpoqcha bu yomon odat haqida shunday debdi:

– Erinmayman hech ishdan, Dangasalik menga yot. Ishyoqmaslik bilingki, Hayotingiz qilar barbod.

Xushfe'l va yoqimtoy Oppog'oy ham bu borada o'zining hayotidan misol keltiribdi:

– Oppog'oyman mehnatkash, Meni barcha suyadi. Harakatchanligim sabab, Doim baxtim kuladi.



Davruga birin-ketin kelib qo'shilishgan Malika Budur, Zolushka, Nastenka kabi qahramonlar ham bolajonlarni mehnatkashlik, bilimdonlik va kitobxonlikka chorlabdi. Hatto sho'xgina Buratino ham Malvinaning saboqlaridan so'ng kitob bilan do'stlashib qolganini ta'kidlabdi. Xullas, hamisha ertaklar yaxshilik bilan yakunlanganidek, bu gal ham Aql Dangasaning ustidan g'alaba qozondi. Tirishqoq va serg'ayrat o'quvchilar esa yuqorida aytganimiz, ustozlari topshirgan vazifani bajarib, ertak kitoblarni mutolaa qilishda bir-birlaridan o'zishga kelishib oldi.

shoshqaloqlik bilan. Ikkinchi o'quvchi esa «A» harfi borligini aytganida, Yalmo'g'iz buvi «Barakalla, bu sinfda bilimli bolalar talaygina, shekilli», deb quvonibdi. Va ular bilan raqsga tushibdi. O'quvchi qizlar esa bu qahramonga bag'ishlab qo'shiq kuylabdi:

– Supurgingizni qo'ying, Uni bizlarga bering. Ikkichilarning mayli, Biroz adabin bering.

Xullas, hamisha ertaklar yaxshilik bilan yakunlanganidek, bu gal ham ezgulik yovuzlik ustidan g'alaba qozondi. Qorbobodan sovg'alar olgan bolalarining yuz-ko'zida quvonch porlab, bir ovozdan dildagi tilaklarini bildiribdi:

– Xush kelibsan, elimizga Yangi yil, Ziyo sochgin yo'limizga, Yangi yil. Zafar keltir, tinchlik, omonlik, Quvonch keltir elimizga, Yangi yil!



Shuningdek, Tamara Ahmedova rahbarligidagi 4-«F» sinf o'quvchilarining bilimlarini Yalmo'g'iz kampir sinovdan o'tkazmoqchi bo'libdi. U bolajonlarga «Sharning o'rtasida nima bor?» deya mantiqiy topishmoq berganida, bolalardan biri «Havo bor», debdi

Sayyora QODIROVA



Qor yog'di!
Qish o'zining yozilmagan daftarin ochdi. Ko'rpaga o'rangan zamin. Yangi yil hosili uchun kuch to'playapti. Qishki ta'til zavqini surgan bolalarning xayoli qorli tog'lar quchog'ida edi.

Qorbobolar Qorqizlari bilan qirdan enib keldi. Ko'ribsizki, dunyo shodlikka to'ldi. Men shoshilib qorxat yozishga tushaman. Birinchi qorni ko'rganimni to'lib-toshib so'zlayman. Har bir faslning o'z gashti bor. Ammo qishning gashti o'zgacha, u har gal bolalik xotiralarimni yodga soladi. Yetmish birinchi yilning qorli, sovuq kunlari birinchi sinfda o'qirdim.

QORXAT

Ustozimiz Toshtemirov sovuqdan qizarib ketgan qo'lchalarimizni har zamonada pechga qizdirib olishimizga ruxsat berardi. Maktabimizning pastak xonasi qishda chakkidan xoli emasdi. O'sha paytlar o'qish biz bolalar uchun igna bilan quduq qazish kabi qiyin kechgan...

Aziz o'quvchi! Bugun o'zimning qirq yetti yil olisda qolgan bolaligimni eslab, achindim. Istiqloq sharofati bilan yurtimiz bo'ylab



- New Year is every man's birthday. (Yangi yil har bir insonning tug'ilgan kunidir).

Charles LAMB

iliq shamollar esdi. Ming-minglab zamonaviy maktab binolari qad rostladi. Yoshlarimizning kitoblarga bo'lgan mehri oshdi. Xizmat safari bilan yurtimizning turli go'shalarida bo'lganimda, yoshlarga yaratilgan sharoitlarni ko'rib, yoshlikka qaytgim keladi.

Bizning baxtiyor, aziz farzandlarimiz! Har bir lahzani g'animat bilib, ko'proq kitob

o'qishingizni tilaymiz. Sizga qorxat yozib yuboryapman, agar qaysi bola qorxatimni gazetada o'qisa, u qarzdor bo'ladi. Qarzdorlikdan qutilishning yo'li yil davomida to'rtta she'riy va to'rtta nasriy kitob o'qishi shart. O'ylaymanki, yangi yilda kitobxon o'quvchilar soni yanada ko'payadi.



AXTAMQULI

Lesson 1

THE BEST WISHES TO CHILDREN

(Eng yaxshi tilaklar bolajonlar uchun)



Our dear children! Best wishes from your favorite newspaper «Tong yulduzi» On that special day we congratulate you on your New Year. We wish you and your family all the best, success in your study, learn more new words and use them in your life. Read more English stories and retell them to your friends. Thank you for your interesting letters. They make us happy and inspire us. It means that your desire interest to English is rising. Never give up!

Dear children! Thank you for your attention.

New Year brings not only happiness, but also makes us happy with a new dream and success new beginning of our life. Wishing you a New Year filled with happiness and good fortune. We wish you happy New Year with a happy new day, every day of the year, as you follow your dreams forever. Today is the first chapter of a 365 page book. Write a good one and good memories. May this year become for you all a fantastic New Year! Let the year ahead be the one where all your dreams come true. May the coming year brings success to you. We wish you a smashing year filled with laughter.

NEW YEAR'S PHRASAL VERBS

1	Stay up	To be awake with the purpose to go to bed later than usual.
2	Count down	To count backward usually to mark an event that is about to happen.
3	Ring in	To celebrate that arrival of a special day, especially the New Year.
4	Go off	To make a loud noise.
5	Look forward to	To be excited about something in the future.

Full fill the gaps with phrasal verbs

1. The parents let their children **stay up** until midnight on New Year holiday.

2. We will ... the New Year with parents in Bukhara.

3. I'm ... our New Year party tonight.

4. My niece always gets scared when fireworks ...

5. People ... the last ten seconds before midnight.



Your teacher
Ma'mura G'ULOMOVA

MAKE UP WORDS

Dear pupils, make up new words with their definitions (Bolalar, yangi so'zlarni ularning ta'riflari bilan yozing)

Zerland

year

New born – a new born child
News – information from internet, newspaper and TV
New Year –
New Zerland –
New house –

NEW born

House



Painter: Yoqubbek HALIMBEKOV

Winter Vocabulary



1.



2.



3.



4.



5.



6.

Dinora ABDULLAJONOVA

Painter: Sumbula MELIMURODOVA

FIND THE KEY WORD FROM THE PICTURES (Rasmlardan kalit so'zni toping)



Sevara BAHODIROVA, the pupil of lyceum ministry of foreign affairs, in Jizzakh region

«NABIRAMGA MAKTUBLAR» TURKUMIDAN

Ajabo, bitta uyda yashab turib, senga maktub yo'zishimni qara. Go'yo bir olis safarga otlanyapman-u, maktabdan kelishingni ham kutmay, ikki enlik xat qoldirayotgandek. Aslida ham shunday, bolam. Mening yoshimdagilar hamisha oldinda kutilayotgan ulug' safar haqida o'ylab qoladilar. Orqalarida qolayotganlarga bir nimalarni aytmoqchi bo'ladilar. Nima demoqchi ekanligimni tushunding-a, oppog'im? Ha, sen nabiralaram orasida tushinadiganisan. Sal sho'xligingni, o'yinqaroqlikingi aytmasa, albatta... Lekin men aytayotgan uncha-muncha sho'xliklarning o'zingga yarashadi. Yarashgani shundaki, judayam haddingdan oshib ketmaysan. Agarda biror ayb ish qilsang, darrovda kechirim so'raysan va bu aybni boshqa qilmaslik harakatiga tushib qolasan. Ana o'sha odating menga yoqadi, erkatoymim. Nimaga desang, kechirim so'rash degani, aslida, chin dildan tavba qilish degani. Bu xatoni boshqa hech qachon qilmayman degani. Kattalar orasida ko'p kuzatganman, kechirim so'rashadi, oq tavba, qora tavba deyishadi-yu, yana o'sha xatoni qilaverishadi. Natijada, bunday odamlarni atrofdagilar subutsizga chiqarib, unga ishonmay qo'yishadi. O'h-ho'... bu juda yomon narsa. Bilsang, ish joyida, mahalla-ko'ya ishonchni yo'qotish o'lim bilan barobar. Odam zoti o'zi bilmagan holda tirik murdaga aylanib qoladi. Bunaqa



ISHONCH

kishilar nafaqat boshqalarning, o'z oila a'zolarining ham ishonchidan chiqib qoladilar. Bolalari, «Ha, adami, oberaman deydinglar-u, baribir obermaydinglar, aldaydinglar», deydingan bo'ladinglar. Eng yomoni, bu illat bolalarga ham yuqishi mumkin. Bundan Xudoning o'zi asrasin.

Savol tug'iladi: odamda bunaqa illat qayerdan, qandoq paydo bo'ladi? Albatta, bolalikdan-da, asal bolam. Sinf-dosh o'rtoqlaringni bir ko'z oldingga keltir. Bir o'rtog'ing dars qilmay keladi-da, kechiring, ustoz, ertaga tayyorlab kelaman, deydi. O'qituvchi bo'lsa: «Senga ishonmayman, nechanchi marta va'da berishing, o'tir, «2», deydi. Ana o'sha ustozining ishonchidan chiqqan bola, o'rtoqlarining ham ishonchidan chiqib qoladi. Sababi, bir qo'pollik qilib o'rtoqlaridan ham kechirim so'raydi-yu, baribir o'sha qo'polligini qilaveradi. Ishonchsizlikning boshi so'z berib, so'zining ustidan chiqmaslikdir.

To'g'ri, sizlarning yoshingizda birdaniga a'lochi-yu, birdaniga mehnatkash-u, birdaniga hamma tomonlama odobli bo'lib qolish qiyin. Bu asta-sekinlik bilan ustozlar va kattalarning o'g'itlari, ba'zan achchiq tanbehilari bilan qaror topadi. Seni yaxshi ko'rishingim boisi, yuqorida aytganimdek, sen o'zingdagi kamchiliklarga befarq emassan. Ularni yo'qotishga tirishib-tirmashib harakat qilasan. Iloho, ISHONCH degan ulug' ne'mat hamisha sen bilan birga bo'lsin!

(Davomi bor)

Bu voqeani menga bobom so'zlab bergan edilar:

– Urush yillari... Men 12 yoshli bola edim, – deya hikoyalarni boshladilar bobom. – Otam ishchi batalyonga safarbar qilingan. Oilani boqish mening gardanimga tushgan. Ocharchilik, qahatchilik shu darajada xalqning tinkasini quritgan ediki, odamlar bir burda non topish ilinjida kunlarni tunga ulardi. Men eshakda Sherobodga qatnar, u yerdan turli xil gazlama bo'yash uchun ishlatiladigan ranglar, mato va ip olib kelib, Boysun bozorida sotardim. Tushgan pulga uyga 2 dona zog'ora non olib borardim. Shu zayl otam urushdan qaytib kelgunlaricha oilaning kam-ko'stiga qarab yurdim. 1943-yil qish juda qattiq keldi. Tog'larda och bo'rilar ko'payib ketgani, Darband, Omonxonada cho'ponlarning qo'ylarini, hattoki tunda tog'dan qaytib kelayotgan yo'lovchilarni ham yeb ketayotgani haqidagi mish-mishlar yurakka vahima solardi. O'sha kunlari Sherobodga otlanarkanman, onam: – Bolajonim, qish chiqquncha bormay tur, och bo'rilar izg'ib yurganmish, negadir ko'nglim g'ash, – deb qoldilar.

– Bormasam bo'lmaydi, onajon, nonga pul topishim kerak, deb yo'lga tushdim. Tush paytida Sherobod bozoriga yetib bordim-da, kerakli narsalarni xarid qildim. Kechga tomon ikki eshakka yuklarni ortib, orqaga qaytdim. Yo'l tog'lar orasidan o'tardi. Qor tizza barobar. Boysungacha hali ikki soatlik yo'l. Birpasda atrofnı qorong'ulik chulg'ab oldi. Oy yorug'ida qorong'u daradan o'tar ekanman, ko'zim qordagi izga tushib qoldi. Izlar hali yangiligidan bildimki, sal oldin bu yerdan och bo'rilar to'dasi o'tgan. Tomog'imga nimadir tiqilganday bo'ldi. Ko'z oldimga meni xavotirlik

bilan kutib turgan munisgina onam va ochlikdan tinkasi qurigan singillarim keldi. Shundan keyin qayerdandir kuch paydo bo'ldi, nima qilsam bo'rilaridan qutilib ketaman, deb o'ylay boshladim. Ulovimning boshini qishlog'imga olib boradigan boshqa aylanma yo'l sari burdim. Yuragim gupillab urar, tiq etgan narsadan cho'chib tushardim. Yo'lning yarmini bosib o'tganimda,

tushdi. Xurjundan kalava va arqonlarni oldim-da, bir uchidan gugurt chaqib, olov yoqdim. Qorong'uda qor shu'lasi bilan kichkina alanga ham vahimali bo'lib ko'rindi shekilli, bo'rilar sal narroq ketdi. Tishlarini g'ijirlatib menga yaqin kelmoqchi bo'ladi-yu, olovdan qo'rqib, yaqinlasholmaydi. Men esa olovni o'chirmayman, shu zaylda bo'rilar men bi-



QORDAGI IZ (Voqeiy hikoya)

yana bo'ri izlariga duch keldim. Qanchalar charchagan bo'lsam ham qo'rquv ustunlik qilar, faqat oldinga intilardim. Shu payt uzoqdan men tomonga yugurib kelayotgan uchta katta bo'rini ko'rib qoldim. Qo'rqqanidan bor ovozda yig'lab yubordim. Tovushim daralardan aks-sado bo'lib qaytdi. Shovqindan yirtqichlar bir zum to'xtadi, so'ng tishlarini g'ijirlatib men tomonga yaqinlasha boshladi. Bo'rilarim ko'zi qonga to'lgan, ochligidan eshaklarimga qo'shib o'zinni ham yeb yuborishga tayyor edi. Shu payt otamni: «Yirtqichlar olovdan qo'rqadi», degan gaplari esimga

lan izma-iz qishlog'imizgacha keldi. Uzoqdan itlarning jo'rlikdagi vahimali ovozdin cho'chishdi shekilli, orqada qola boshlashdi. Qishlog'imga kirib kelganimda xurjunda bir dona ham kalava qolmagan edi. Uyimiz ostanasidan hatlab o'tdim-u, hushimdan ketdim... Shu bo'yi bir oy kasal bo'lib yotdim.

Bobom hikoyalarni tugatib, uzoq o'ygaga toldilar. 12 yoshli bolaning jasorati, aqli, boshdan kechirgan og'ir kunlari tasavvurimda tasmadek aylana boshladi.



Jamoliddin ABDULLAYEV



Kitoblar aql farzandlaridir.

J. Svift



Nabijon ERMAT, bolalar shoiri

BOBOJON

E'zozli yozuvchi Xudoyberdi To'xtaboyevga kichkintoylar dilidagi chizgilar

Bolalarning sevimli, Bobosi Xudoyberdi. Bizdek o'g'il-qizlarga, Ko'p kitob o'qing, deydi.

Davralarni to'ldirib, Bahs, muloqot quradi. Chorlasak ixlos bilan, Davramizga keladi.

Baxtli zamon yoshlari, Yozuvchisin aylar yod. Ibrat soatlaridan, Mehrini etar bunyod.

«Sehrii qalpoqcha»dan, «Sir ochildi», «Shoshqaloq». «Omon-Davron» hayoti, Juda mashhurdir, o'rtoq.

Bobom dastlab felyetonda, Charxlab oldi qalamini. Endi biz kichkintoydan, Ayamas dil kalomini.

«Sariq dev»ni minvolib, Roman yozdi bobomiz. Shov-shuv bo'ldi asari, O'qiganmiz hammamiz.

«Besh bolali yigitcha», «Qasoskor oltin boshi». «Shirin qovunlar mamlakati», «Mungli ko'zlar» quyoshi.

Bolajonlar g'amin yeb, Bobom yozdi romanlar. «Sariq devni o'limi», Ham «Jannati odamlar».

Bugun bobom shodlanib, Qutlug' yoshin nishonlar. Yuraklardan o'chmaydi, Davradagi bu onlar.

To'qson bilan to'qnashib, Yuz bilan yuzlashadi. Hali ko'p kitob yozib, Bizlarga ulashadi.

Barcha kashfiyotlar ichida eng go'zali yaxshi tarbiya olgan insondir.

Epiktet

Ortda qolgan 2017-yilning so'nggi oyi yosh charmqo'lqop ustalarimiz uchun omadli keldi.



BOKU RINGLARI omad keltirdi

Sportchilarimiz Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida boks bo'yicha bo'lib o'tgan «A. Agalarov Cup – 2017» xalqaro turnirida 2 oltin, 2 kumush, 3 bronza medalni qo'lga kiritib, umumjamoa hisobida 2-o'rinni egalladi.

Musobaqaning – 60 kg vazn toifasida ringga ko'tarilgan umidli bokschimiz Halim Utegenov barcha raqiblarini ortda qoldirib, shohsupaning eng yuqori pog'onasiga ko'tarildi. – 64 kg vazn toifasida yurtimiz sharafigini munosib himoya qilgan Jahongir Rahmonov ham bor iqtidorini namoyish etib, yakunda oltin medalga sazovor bo'ldi.

Shuningdek, Sardor Kamolmirzayev va Javohir Tog'aymurodov kumush medal bilan taqdirlangan bo'lsa, yana uch nafar yosh charmqo'lqop ustamiz bronza medalni qo'lga kiritdi.

VATERPOLCHILAR BELLASHUVI

Keyingi yillarda yurtimizda suv sporti turlarini rivojlantirish, farzandlarimiz o'rtasida uni ommalashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuksak samaralar bermoqda.



Joylarda o'tkazilayotgan turli musobaqalar esa yosh avlod orasidan yangi-yangi iste'dod egalarini kashf etishga, ular iqtidorini ro'yobga chiqarishga xizmat qilmoqda.

Kuni kecha Toshkent shahar suv sporti turlariga ixtisoslashgan bolalar va o'smirlar sport maktabida

da vaterpol bo'yicha poytaxt ochiq chempionati bo'lib o'tdi. Unda yosh vaterpolchilar g'oliblik uchun bahs olib bordilar.

Qizg'in va keskin kurashlar ostida o'tgan bellashuvda mezbon sport maktabi tarbiyalanuvchilari barcha raqiblarini mag'lub etib, shohsupaning eng yuqori pog'onasiga ko'tarildi.

Aziz o'quvchilar, mana, 2017-yilni kuzatib, yangi – 2018-yilni ham qarshi oldik. Aytish kerakki, ortda qolgan yilda o'zbek sportchilari olamshumul g'alabalarni qo'lga kiritdi. Ishonamizki, bu yil ham sportchilarimiz o'zlariga bildirilgan yuksak ishonchni oqlab, jahon arenalarida yurtimiz bayrog'ini balandlarga ko'taradi.



S. TURSINOV

SPORTCHILARIMIZ CHEMPIONLAR SAFIDA

Yaqinda Singapurda dzyudo bo'yicha «Chaqiruv kubogi» bo'lib o'tdi.

Turnirda Singapur, Malayziya, Shri-lanka, Filippin, Indoneziya, Koreya, Avstraliya, Yaponiya singari 9 davlatdan ishtirok etgan 400 nafar sportchi orasida O'zbekiston «Yoshlik» sport jamiyatidan 7 nafar kurashchimiz ham qatnashdi.

Musobaqa yakuniga ko'ra, hamyurtlarimizdan Ulug'bek To'rayev 90 kg, Yoqubjon Safarov esa 73 kg vazn toifasida g'oliblikni qo'lga kiritib, oltin medal sohibiga aylandi. 7-sinf o'quvchisi Ismoil Sobitov 50 kg hamda poytaxtimizdagi xoriyij tillarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi o'quvchisi Ibrohim Abdug'aniyev esa 36 kg vaznda 2-o'rinni egalladi.

Olmazor tumanidagi 169-umumta'lim maktabining 3-sinf o'quvchisi Muhammadboriy Qahramonov 28 kg va yunusobodlik Normurod Ahmedov 66 kg vaznda 3-o'ringa munosib topildi. Abjir kurashchilarimizdan hisoblangan Nurmuhammad Davronboyev ham sovrindorlar qatoridan joy egalladi.

O'zbekistonlik sportchilar jamoaviy bahslarda 1-o'rinni zabt etishdi.

Shukrulla G'ULOMOV

MURABBIY E'TIROFI

Javohir Shirinqulov poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 195-umumta'lim maktabining 2-«J» sinfidagi o'quvchisi. Besh yildan beri tumandagi 164-umumta'lim maktabida tashkil etilgan karate to'garigiga muntazam qatnashib kelmoqda.

Umidli sportchimiz yosh bo'lishiga qaramay, qator musobaqalarda g'oliblikni qo'lga kiritib kelmoqda. 2017-yilning 22-aprelida Samarqandda bo'lib o'tgan Giyohvandlik va terrorizmga qarshi o'smirlar o'rtasidagi karate bo'yicha BO'SM birinchiligida 6-7 yoshli- lar orasida



kumite bahslarida 1-, kata bahslarida 2-o'rinni egalladi. Shuningdek, Bekobod shahrida bo'lib o'tgan «Xayr, maktabim!» sport musobaqasida o'z vazn toifasida g'olib bo'ldi.

– Javohir boshlang'ich sinf o'quvchisi bo'lsa-da, haqiqiy sportchilarga xos bosiq, kamgap. Har bir mashg'ulotga e'tibor bilan yondashib, o'rgatgan usullarimni puxta o'zlashtirishga harakat qiladi, – deydi murabbiy Ravshan Boboxonov. – Barcha shogirdlarim qatori undan umidim katta.

Biz ham Javohir Shirinqulovning kelajakda mashhur sportchi bo'lib, mamlakatimiz sharafiga xalqaro maydonlarda munosib himoya qilishiga ishonamiz.

Muhammadsodiq ALIMOV

Aziz bolajonlar! Orangizda jajji kuchukchasi bo'lishini istamaydigan bolakay bo'lmasa kerak-a?!

Ayniqsa, hovli uyda yashovchi do'stlaringiz, albatta, bu jonivorni parvarishlaydi. It azal-azaldan o'zining vafodorligi, insonlarga sadoqati bilan boshqa hayvonlardan ajralib turadi. Anglagan bo'lsangiz, kirib kelgan Yangi – 2018-yil muchal hisobi bo'yicha it yili deb hisoblanadi. Bu yilda tug'ilgan odamlarga eng yaxshi insoniy fazilatlar xos. Ular

YANGI YILDA MUCHAL QANDAY BO'LADI?



o'ta sadoqatli, har bir ishga mas'uliyat bilan yondashadigan, sofdilligi hamda sir saqlay olishi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, ular hazil-mutuyibaga usta bo'lishadi. Mayda-chuyda gaplardan uzoq yurishadi. Vaqti kelganda, haddan tashqari o'jar, nohaqlik esa ularda norozilik uyg'otadi va u bartaraf etilmaguncha hovurdan tushmaydi.

Odamlar uchun yaxshilik qilishadi, atrofidagi kishilar ularni doimo maqtashlarini yoqtirishadi, ammo kamchiliklarini yuziga aytishlariga aslo chiday olmaydi...

Manzura UBAYDULLAYEVA tayyorladi



DUNYODAGI ENG KATTA ARCHALAR

Dunyodagi eng katta suzib yuruvchi archalardan biri Braziliyaning Rio-de-Janeyrodagi Lagoa ko'lida o'rnatilgan. Ushbu ko'l Karkavadu tog'lari bilan o'ralgan bo'lib, bu yerga tashrif buyurganlar o'zlarini haqiqiy ertaklar olamiga tushib qolgandek his etishadi. Bu yil 16-marotaba o'rnatilgan ushbu archaning uzunligi – 85 metr, og'irligi – 542 tonna bo'lib, maydoni esa 810 kvadrat metr. Archa turli xil o'yinchoqlar bilan yasatilgan bo'lib, zardagi chiroqlarning miqdori 3 mln 300 mingga yetadi.



Yana bir antiqa archalardan biri Italiyaning Indjino tog'ida 30-yildan buyon yasatilib kelinmoqda. Hattoki u 1991-yil dunyodagi eng katta Yangi yil archasi sifatida «Ginnesning rekordlar kitobi»dan joy olgan. 1040 chiroqlardan iborat bo'lgan ushbu archa har besh daqiqa o'z ranglarini o'zgartiradi. Uning balandligi 750 metr, eni esa 450 metrni tashkil etadi. Archaning yorqinligidan uni shaharning istalgan joyidan tomosha qilish mumkin.

«Ginnesning rekordlar kitobi»dan o'rin olgan yana bir archa Mexikoda o'rnatilgan bo'lib, balandligi va yorqinligi bilan ajralib turadi. Uzunligi 110 metr, og'irligi esa 300 tonnani tashkil etadi. Archa 80 km zar, 200 mingta chiroqlar bilan bezatilgan.



Internet manbalari asosida Nigora ABDUNAZAROVA tayyorladi




BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR! YANGI YIL KROSSVORDI

Bo'yiga: 1. Birinchi yo'g'on barmoq. 3. «Zumrad va ...» (ertak). 4. Muttaham. 8. Sen (sheva). 9. Bilim. 10. Narsaning tag qismi. 11. Teskari, zid. 13. Dada, ota (sheva). 14. Dastlabki. 16. Nihoyat, darajada. 17. Ishora. 18. Zebraning rangi.

Eniga: 2. Ko'rsatish olmoshi. 5. Darmondori. 6. Sirdaryo «sherigi». 7. Yashamoq, hayot kechirmoq. 12. Dushman, yov. 15. G'ov. 19. Haykal yasovchi usta.

Tuzuvchi: Fayzulla ABDULLAYEV



SOVUQNI CHIQAHSIN

– Eshikni yop, sovuq kir-yapti, – dedim o'g'limga.
– Dodajon, – dedi nabiram Ra'noxon menga hayratlanib.
– Ha, qizim, nima deysan?
– Sovuqni kim obkiradi?
– Shamol-da, qizim, kim obkiradi.
– Unday bo'lsa, – dedi Ra'noxon jiddiy ohangda, – shamolga ayting, sovuqni chiqarib tashlasin!

– Ra'noxon, choyni puflab ich. Choying issiq.
– Unday qiolmayman.
– Nega?
– Puflab turib choyni qanday ichaman?

– Dodajon, dodajon, – dedi Ra'noxon bir muhim gapni aytmoqchiday yonimga ke-lib. – Buvisi yolg'on gapirdi.
– Nima dedi?
– Hojiakbarni quloqsiz, dedi. Men ko'rdim. Uning ikkita qulog'i bor...

– Ra'noxon, boshingga qalpog'ingni kiyib ol. Kun juda sovuq. Boshing sovuq yeydi, – dedi Dilorom opa hovliga chiqmoqchi bo'lgan nabirasiga.
– Kiymayman.
– Nega?
– Boshimda og'zim yo'q. Sovuq yemaydi, – dedi Ra'noxon jiddiy ohangda boshini ko'rsatib.

Bahrom AKBAROV